



- ✓ Volume 1
- ✓ Issue 1
- ✓ april 2024

MODERN EDUCATION AND DEVELOPMENT



Google
Scholar





YANGILANISH BOSQICHIDAGI BUXORO ADABIYOTI

Ramazon Xurramov,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning so‘nggi o‘n yilligi hamda O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki bosqichida Buxoro viloyati adabiy muhitida yuz bergan ijtimoiy-ma‘naviy va institutsional jarayonlar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘tish davriga xos bo‘lgan mafkuraviy inqiroz, qadriyatlar tizimidagi transformatsiya va “normativ vakuum” sharoitida adabiy jarayonning shakllanish xususiyatlari yoritiladi. Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limlari faoliyatidagi tashkiliy muammolar, mehnat intizomi masalalari, adabiy maslahatchi institutining mazmuniy transformatsiyasi hamda erkinlik va nazorat o‘rtasidagi ziddiyatlar tarixiy-manbashunoslik asosida sharhlanadi. Shuningdek, Buxoro adabiy muhitiga xos zullisonaynlik an‘anasi, ko‘pmadaniyatlilik omili va milliy adabiy jarayonda etnik guruhlarining faolligi mustaqillik davridagi madaniy pluralizm kontekstida tahlil etiladi.

Maqolada sovet davrida shakllangan ijodiy an‘analar bilan mustaqillik davrida maydonga kirib kelgan erkin tafakkur o‘rtasidagi estetik va konseptual tafovutlar, avlodlar o‘rtasidagi ijodiy munosabatlar hamda yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatining hududiy adabiy muhit barqarorligidagi o‘rni ilmiy asosda ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqillikning ilk yillarida yuzaga kelgan institutsional va mafkuraviy murakkabliklar Buxoro adabiy muhitida inqiroz emas, balki mazmun va shakl jihatidan yangilanish, badiiy tafakkurning chuqurlashuvi hamda ijodkor shaxsining ijtimoiy mas‘uliyatini qayta belgilash jarayonini boshlab bergan.

Kalit so‘zlar. Mustaqillik davri; o‘tish davri; Buxoro adabiy muhiti; Yozuvchilar uyushmasi; adabiy siyosat; normativ vakuum; adabiy maslahatchi



instituti; zullisonaynlik; madaniy pluralizm; avlodlar uzviyligi; badiiy tafakkur transformatsiyasi.

Аннотация. В статье комплексно анализируются социально-духовные и институциональные процессы, происходившие в литературной среде Бухарской области в конце XX века и в первые годы независимости Узбекистана. Особое внимание уделяется трансформации литературного процесса в условиях переходного периода, сопровождавшегося идеологическим кризисом, изменением системы ценностей и формированием состояния «нормативного вакуума». На основе историко-архивных материалов рассматриваются проблемы организационного характера в деятельности областных отделений Союза писателей, вопросы трудовой дисциплины, а также трансформация института литературного консультанта в новых общественно-политических условиях.

В работе анализируются противоречия между расширением творческой свободы и необходимостью сохранения институциональной устойчивости, а также взаимодействие советских литературных традиций с формирующимся независимым художественным мышлением. Особое место занимает исследование феномена двуязычия (зуллисонайнлик) и культурного плюрализма в литературной среде Бухары. В статье показано, что сложности переходного периода не привели к кризису региональной литературной среды, а стали фактором ее качественного обновления, углубления художественного мышления и переосмысления социальной роли творческой личности.

Ключевые слова: переходный период; независимость Узбекистана; литературная среда Бухары; Союз писателей; нормативный вакуум; литературная политика; институт литературного консультанта; двуязычие; культурный плюрализм; преемственность поколений.



Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the socio-cultural and institutional processes that shaped the literary environment of the Bukhara region during the late twentieth century and the first years of Uzbekistan's independence. Particular attention is paid to the transformation of the literary process in the context of the transitional period, characterized by ideological crisis, shifts in the system of values, and the emergence of a "normative vacuum." Drawing on historical and archival materials, the study examines organizational challenges within regional branches of the Writers' Union, issues of labor discipline, and the transformation of the literary consultant institution under new socio-political conditions.*

The paper explores the tension between the expansion of creative freedom and the need to preserve institutional stability, as well as the interaction between Soviet literary traditions and emerging independent artistic thinking. Special emphasis is placed on the phenomenon of bilingual literary tradition (zullisonaynlik) and cultural pluralism within the Bukhara literary environment. The findings demonstrate that the difficulties of the transitional period did not result in a crisis of the regional literary sphere; rather, they became a catalyst for qualitative renewal, deepening of artistic thought, and redefinition of the social responsibility of the creative individual.

Keywords: *transitional period; independence of Uzbekistan; Bukhara literary environment; Writers' Union; normative vacuum; literary policy; literary consultant institution; bilingual literary tradition; cultural pluralism; generational continuity.*

XX asrning so'nggi o'n yilligi O'zbekiston tarixida tub burilishlar, keskin ijtimoiy-siyosiy siljishlar va ma'naviy yangilanishlar davri sifatida alohida o'rin tutadi. 1989–1991-yillar oralig'ida respublika jamiyati sobiq ittifoq mafkuraviy tizimidan mustaqil milliy davlatchilik bosqichiga o'tish jarayonini boshdan kechirdi. Bu jarayon nafaqat siyosiy suverenitetni qo'lga kiritish, balki ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi, tarixiy xotira va milliy o'zlikni qayta anglash bilan bog'liq



murakkab ruhiy-ma'naviy siljishlar orqali namoyon bo'ldi. Ayniqsa, adabiyot va madaniyat sohasi mazkur o'zgarishlarning eng sezgir maydoniga aylandi. Chunki adabiyot har qanday tarixiy burilish davrida jamiyatning ichki ruhiy holatini, ziddiyatlarini, izlanishlarini va istiqbolga bo'lgan intilishlarini o'zida mujassam etadi. Shu ma'noda, mustaqillik arafasi va uning dastlabki yillari adabiy jarayonini o'rganish o'tish davrining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini anglashda muhim metodologik manba vazifasini bajaradi.

O'tish davri tabiatiga xos jihat shundaki, eski mafkuraviy asoslar yemiriladi, biroq yangi qadriyatlar tizimi hali to'liq shakllanib ulgurmaydi. Natijada jamiyatda muayyan vaqt oralig'ida g'oyaviy bo'shliq, ma'naviy ikkilanish va ruhiy beqarorlik kuzatiladi. Bu jarayonni sotsiologik nuqtai nazardan "normativ vakuum", ya'ni qadriyatlar tizimidagi vaqtinchalik nomutanosiblik holati sifatida talqin qilish mumkin. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida ham shunday murakkab manzara yuzaga keldi. Ilm-fan, san'at va adabiyot vakillari, xususan sovet davrida shakllangan ijodkorlar uchun bu jarayon ayniqsa og'ir kechdi. Avvalgi davrda qat'iy mafkuraviy nazorat ostida faoliyat yuritgan ijodkor endilikda erkin fikrlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Biroq erkinlik o'z-o'zidan yangi yo'lni topish degani emas edi; aksincha, u mas'uliyatni, mustaqil pozitsiyani, ichki vijdon bilan yuzma-yuz kelishni talab qildi. Ijodkor endi tashqi buyurtma emas, ichki ehtiyoj va milliy mas'uliyat asosida ijod qilish zarurati bilan to'qnash keldi.

Bu jarayon hududiy adabiy muhitlar misolida yanada aniqroq ko'zga tashlanadi. Chunki markaziy darajadagi umumiy tendensiyalar hududlarda o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Jumladan, Buxoro viloyati adabiy muhiti mustaqillikning ilk yillarida ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlarning o'ziga xos laboratoriyasiga aylandi. Tarixan zullisonaynlik an'anasi, ko'pmadaniyatlilik va boy adabiy merosga ega bo'lgan Buxoro adabiy muhiti o'tish davrida bir vaqtning o'zida ham inqiroz, ham yangilanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Bu yerda yuz bergan jarayonlar umumrespublika miqyosidagi o'zgarishlarning hududiy modelini ifodalaydi.



Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 1989–1991-yillarda Yozuvchilar uyushmasining viloyat bo'limlarida mehnat intizomi keskin susaygan. Mas'ul kotiblar va adabiy maslahatchilarni ish joylarida topish qiyinlashgani haqidagi shikoyatlar rasmiy hujjatlarda qayd etilgan. Bu holat oddiy tashkiliy muammo emas, balki mafkuraviy tizimning yemirilishi natijasida yuzaga kelgan institutsional bo'shliqning ifodasi edi. Sovet davrida adabiy jarayon qat'iy markazlashgan boshqaruv asosida yuritilgan, ijodiy faoliyat ham ma'lum ma'muriy-me'yoriy doiralarga solingan edi. Qayta qurish va mustaqillik arafasida esa ushbu mexanizm izdan chiqq boshladi. Rasmiy lavozimlar saqlanib qolgani holda, ularning real mazmuni va funksiyasi zaiflashdi. Natijada tashkiliy tizim bilan ijodiy hayot o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keldi.

Buyruqda ish vaqtining soat 10:00 dan 19:00 gacha qat'iy belgilanishi, mehnat intizomini mustahkamlash choralarining ko'rilishi, maosh to'lashni tabel asosida nazorat qilish zarurati ko'rsatilishi adabiy muhitda "erkinlik va nazorat" o'rtasidagi murakkab ziddiyatni ochib beradi. Bir tomondan, ijodiy erkinlik kengaygan, senzura susaygan, mafkuraviy cheklovlar bekor qilina boshlagan edi. Ikkinchi tomondan esa, tashkilot faoliyatini saqlab qolish uchun ma'muriy-intizomiy mexanizmlarga murojaat qilinmoqda edi. Bu paradoks o'tish davrining strukturaviy xususiyati sifatida baholanishi mumkin: erkinlik kengaygan sari boshqaruv mexanizmlari qayta ko'rib chiqilishi zarur bo'ladi. Aks holda erkinlik intizomsizlik bilan adashtiriladi. Shuning uchun mazkur choralarni faqat repressiv mexanizm emas, balki institutsional barqarorlikni tiklashga qaratilgan urinish sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiy maslahatchi instituti ham aynan shu jarayonda transformatsiyani boshdan kechirdi. Sovet davrida adabiy maslahatchi ko'pincha mafkuraviy filtrlash va ideologik nazorat funksiyasini bajargan bo'lsa, mustaqillik sharoitida uning roli professional metodik ko'mak beruvchi, yosh ijodkorni yo'naltiruvchi, badiiy saviyani oshiruvchi mutaxassis sifatida qayta belgilanishi zarur edi. Bu esa institutning mazmuniy qayta qurilishini talab qildi. Biroq o'tish davrida eski va yangi



vazifalar o'rtasidagi tafovut saqlanib qoldi. Ba'zi hollarda maslahatchilar avvalgi andozalar asosida faoliyat yuritishga urinib, yangi erkin muhit talablariga moslashishda qiyinchilikka duch keldilar. Shu bois adabiy maslahatchi institutining transformatsiyasi mustaqillik davri adabiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Buxoro adabiy muhitining muhim xususiyatlaridan biri – zullisonaynlik an'anasidir. Tarixan o'zbek va tojik tillarida ijod qilish bu hudud madaniyatining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Bu ikki tillilik faqat lingvistik hodisa emas, balki madaniy sintezning ko'rinishidir. Mustaqillik yillarida ham bu an'ana davom etdi. Viloyat bo'limining tojik tilida ijod qiluvchilar uchun alohida adabiy maslahatchi ajratish masalasini ko'tarishi hududiy adabiy muhitda ko'p tillilik real ijodiy zarurat sifatida mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa mustaqillik davrida milliy o'zlikni tiklash jarayoni boshqa madaniy qatlamlarni inkor etmaganini, aksincha, ularni uyg'unlashtirishga intilganini bildiradi. Shu ma'noda Buxoro adabiy muhiti milliy birlik va madaniy xilma-xillik o'rtasidagi muvozanat modelini namoyon etadi.

Shuningdek, uyushma tarkibida turli millat vakillarining mavjudligi, Buxoro yahudiylarining adabiy kengash tuzish tashabbusi va ular uchun rasmiy ravishda yig'ilishlar o'tkazishga ruxsat berilgani mustaqillikning ilk bosqichida madaniy pluralizm va etnik o'zlikni qo'llab-quvvatlash siyosati shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu jarayon sovet davridagi deklarativ "xalqaro do'stlik" modelidan farqli ravishda, real tashkiliy va institutsional asosga ega bo'ldi. Ya'ni milliy guruhlar o'z madaniy tashabbuslarini erkin amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'la boshladi. Bu esa adabiy muhitni yanada rang-barang va ko'p qatlamli qildi.

O'tish davrining eng muhim jihatlaridan biri avlodlar o'rtasidagi ijodiy munosabatlarning qayta shakllanishidir. Sovet davrida yetishib chiqqan tajribali ijodkorlar ko'pincha adabiyotni ijtimoiy buyurtma vositasi sifatida qabul qilgan edilar. Ularning badiiy maktabi an'anaviy realizm, g'oyaviy barqarorlik va kollektiv idealga sodiqlik bilan ajralib turardi. Mustaqillik yillarida maydonga kirib kelgan yosh avlod esa adabiyotga shaxsiy tajriba, individual iztirob, ichki erkinlik va



psixologik chuqurlik prizmasidan yondasha boshladi. Bu ikki yondashuv o'rtasida muayyan estetik va konseptual ziddiyatlar yuzaga kelgani tabiiy edi.

Biroq mazkur ziddiyatni destruktiv qarama-qarshilik sifatida emas, balki ijodiy dinamika omili sifatida baholash lozim. Tajribali avlod o'zining hayotiy tajribasi, tarixiy xotirasi va badiiy mahorati bilan yoshlar uchun maktab vazifasini bajargan bo'lsa, yosh avlod adabiyotga yangi mavzu, yangi shakl va yangi ruh olib kirdi. Natijada Buxoro adabiy muhitida uzilish emas, balki murakkab, ammo uzviy rivojlanish jarayoni yuzaga keldi. Bu jarayonni "an'ana va innovatsiya" o'rtasidagi dialektik munosabat sifatida talqin etish mumkin.

Viloyat bo'limining yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyati bu jarayonning barqarorligini ta'minladi. Yoshlarning viloyat va respublika nashrlarida chiqishlari, ilk kitoblarining chop etilishi, adabiy uchrashuv va muhokamalarning tashkil etilishi adabiy muhitning kelajak istiqbolini mustahkamladi. Bu jarayon ijtimoiy kapitalni shakllantirish, ya'ni ijodkorlar o'rtasida ishonch va hamkorlik muhitini mustahkamlashga xizmat qildi. Ayniqsa, iqtisodiy qiyinchiliklar va umumiy beqarorlik sharoitida bu tashabbuslarning amalga oshirilishi hududiy adabiy muhitning ichki salohiyati va barqarorligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mustaqillikning dastlabki yillari Buxoro adabiy muhiti tarixida sinov va yangilanish davri sifatida namoyon bo'ldi. Institutsional tartibsizliklar, mehnat intizomi muammolari, mafkuraviy bo'shliq va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, adabiy muhit o'zining ichki harakatchanligini saqlab qoldi. Erkin tafakkur, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va badiiy shaklning yangilanishi jarayoni aynan shu davrda mustahkam poydevor topdi.

Shu tariqa, Buxoro adabiy muhiti o'tish davrida inqiroz emas, balki sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilish jarayonini boshdan kechirdi. Bu jarayon milliy adabiyotning keyingi taraqqiyoti uchun zarur ijtimoiy-ma'naviy zaminni yaratdi va ijodkor shaxsining jamiyatdagi o'rni hamda mas'uliyatini yangi darajada belgilab berdi. Buxoro tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'tish davridagi ziddiyatlar va



murakkabliklar ijodiy salohiyatni susaytiruvchi emas, balki uni yangi bosqichga olib chiquvchi omilga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. The Establishment of The Bukhara Regional Branch of The Writers' Union Of Uzbekistan (Based On Archival Materials). Central Asian Journal Of Social Sciences And History Volume: 02 Issue: 04 | April 2021 (ISSN: 2660-6836) Journal homepage: [www. http://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH](http://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH).
2. Ахматов А. Бухоро адабий муҳити тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.. автореф.... – Бухоро, 2022.
3. Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона, 2015. –Б. 293.
4. Ўзбекистон миллий архиви, Р-2356 фонд, 1-рўйхат, 1522-иш, 10-варақ